

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/30.12.2020.I.16.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

Qo‘lyozma huquqida

**UDK: 659.1:658:658.2(575.1)**

**BERDIYEV BOBIR BAXTIYOROVICH**

**IPAKCHILIK KORXONALARIDA BREN  
STRATEGIYASIDAN FOYDALANISHNI  
TAKOMILLASHTIRISH**

**08.00.11 – Marketing**

Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) darajasini olish uchun tayyorlangan  
dissertatsiya

**IPAKCHILIK KORXONALARIDA BREN  
STRATEGIYASIDAN FOYDALANISHNI  
TAKOMILLASHTIRISH**

**Ilmiy rahbar: Ergashxodjayeva Shaxnoza Djasurovna,  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor.**

<b>MUNDARIJA</b>		
<b>KIRISH.....</b>	<b>4</b>	
<b>I BOB.      IPA KCHILIK KORXONALARIDA BREND STRATEGIYALARIDAN FOYDALANISHNING NAZARIY HILKICHIN VA USLUBIY ASOSLARI</b>		<b>12</b>
1.1. Korxonalarda brend strategiyalaridan foydalanishning nazariy jihatlari .....		12
1.2. Korxonalarda brend strategiyalaridan foydalanishning uslubiy jihatlari .....		29
1.3. Ipakchilik mahsulotlari bozorida brend strategiyalaridan foydalanish bo'yicha xorijiy mamlakatlar tajribalarini O'zbekistonda qo'llash .... Birinchi bob bo'yicha xulosa.....		39 53
<b>II BOB.      IPA KCHILIK KORXONALARIDA BREND STRATEGIYALARIDAN FOYDALANISH HOLATI TAHLILI VA STRATEGIK IMKONIYATLARINI BAHOLASH</b>		<b>55</b>
2.1. O'zbekiston ipakchilik mahsulotlari bozorining rivojlanish tendensiyalari .....		55
2.2. Ipakchilik korxonalarida brend strategiyalaridan foydalanish holati tahlili .....		66
2.3. Ipakchilik mahsulotlariga brendni shakllantirishda iste'molchilar xulq-atvorining ta'siri tadqiqi .....		71
Ikkinchi bob bo'yicha xulosa.....		87
<b>III BOB.      IPA KCHILIK KORXONALARIDA BREND STRATEGIYALARIDAN FOYDALANISHNI TAKOMILLASHTIRISH VA SAMARADORLIGINI OSHIRISH</b>		<b>89</b>
3.1. Ipakchilik korxonalarini rivojlantirishda barqaror moda konsepsiya asoslangan brend strategiyalaridan foydalanish .....		89
3.2. Ipakchilik korxonalari brendini ilgari surishda raqamli marketing strategiyalaridan foydalanishni takomillashtirish .....		98
3.3. Ipakchilik mahsulotlari eksportini rivojlantirishda brend strategiyalaridan foydalanish samaradorligini oshirish .....		107
Uchinchi bob bo'yicha xulosa .....		118
<b>XULOSA .....</b>		<b>120</b>
<b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI .....</b>		<b>122</b>
<b>Ilovalar.....</b>		<b>131</b>

## KIRISH

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonda ipakchilik sanoati rivojlanishining ustuvori yo‘nalishlari sifatida, korxonalar tomonidan shakllantirilayotgan brendlarning xalqaro nufuzini oshirish, mijozlar sodiqligini mustahkamlash va xalqaro integratsiyani ta’minlash orqali yuqori qo‘silgan qiymatli mahsulotlar eksportini oshirishga katta e’tibor qaratilmoqda.<sup>1</sup> “Brend strategiyasi – bu iste’molchilar ko‘z o‘ngida kompaniya yoki mahsulotning noyob va taniqli qiyofasini yaratishga yo‘naltirilgan uzoq muddatli reja. Brend strategiyasining zamonaviy biznesdagi ahamiyatini tasavvur etish qiyin. U mijozlarni o‘ziga jalgan etish, ular bilan uzoq muddatli munosabatlarni o‘rnatish hamda brendning ijobiy his etilishini shakllantirishda qudratli dastak bo‘lib xizmat qiladi”<sup>1</sup>. Jalon ipak mahsulotlari bozori qadimdan rivojlanib kelayotgan, yuqori qo‘silgan qiymatli va yuqori narx ustunligiga ega soha sifatida tan olingan. Ipak mahsulotlari bozorining izchil o’sishi korxonalarga brend strategiyalarini shakllantirishni talab qiladi.

Jahonda global raqobatning kuchayishi va raqobatbardoshlikni oshirishda marketing vositalarining keng qo‘llanilishi sharoitida yengil sanoat, shu jumladan, ipakchilik korxonalarida brend strategiyalarini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Korxonalar brendini shakllantirish bo‘yicha zamonaviy ilmiy-nazariy yondashuvlarni ishlab chiqish, ipakchilik korxonalarida brendni shakllantirish amaliyoti va brend strategiyalaridan foydalanishda innovatsion uslublarni qo‘llash, brendlarni raqobatbardoshligini baholashning uslubiy asoslarini rivojlantirish, brendlarni targ‘ib qilishda raqamli marketing strategiyalaridan foydalanish samaradorligini oshirish, global brend strategiyasini yaratishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini ishlab chiqish va ipakchilik mahsulotlari brendini yaratish orqali qo‘silgan qiymat hosil qilish masalalari ushbu yo‘nalishdagi tadqiqotlarning asosiy maqsadlaridan biri hisoblanadi.

<sup>1</sup> Стратегии бренда: ключевые принципы, разработка и успешные примеры. - <https://tbtbo.agency/strategii-brenda/?ysclid=lvz19u4dnf896370414>

O‘zbekistonda ipakchilik sanoatini xalqaro bozorlarda barqaror ustunligini ta‘minlay oladigan brend strategiyalari ishlab chiqish, yuqori qo‘shilgan qiymatli tayyor mahsulotlar bilan jahon bozorlarida munosib raqobatlasha oluvchi milliy brendlarni shakllantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi «2022–2026- yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»gi PF-60-son Farmonida «To‘qimachilik sanoati mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini 2 barobarga ko‘paytirish», «tayyor mahsulotlar uchun milliy brendlarni rivojlantirish va ularning eksportini oshirish, jumladan milliy va xorijiy brenddagi tayyor mahsulot eksporti hajmini 2026-yilda 5-mld. AQSH dollariga yetkazish» 2 vazifalari belgilab berilgan. Mazkur vazifalarning samarali bajarilishi ipakchilik mahsulotlari brendini shakllantirish va eksport imkoniyatlarini oshirishga yo‘naltirilgan marketing strategiyalarini yaratishga yo‘naltirilgan ilmiy tadqiqotlarning amalga oshirilishini taqozo etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 1-iyundagi PF-85-son «Pillachilik sohasida kasanachilikni qo‘llab-quvvatlash hamda pilla yetishtirish uchun ozuqa bazasini yanada kengaytirishning qo‘srimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida», 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son «2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida», 2020-yil 2-sentabrdagi PF-6059-son «O‘zbekiston Respublikasida pillachilik va qora-ko‘lchilikni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi farmonlari, 2020-yil 17-yanvardagi PQ-4567-son «Pillachilik tarmog‘ida ipak qurti ozuqa bazasini rivojlantirish bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida», 2019-yil 31-iyuldagisi PQ-4411-son «Pillachilik tarmog‘ida chuqur qayta ishlashni rivojlantirish bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida», 2018-yil 4-dekabrdagi PQ-4047-son «Respublikada pillachilik tarmog‘ini jadal rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlashga doir qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida», 2018-yil 20-avgustdagisi PQ-3910-son «Respublikada pillachilik tarmog‘idagi mavjud

<sup>2</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi «2022 — 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»gi PF-60-son Farmoni. <https://lex.uz/docs/5841063>

imkoniyatlardan yanada samarali foydalanish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarorlari hamda sohaga oid boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi.** Dissertatsiya ishi respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining «Demokratik va huquqiy jamiyatni ma’naviy-axloqiy hamda madaniy-ma’rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish»ning ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darjasи.** Korxonalarda brend strategiyasidan foydalanishni takomillashtirishning ilmiy-nazariy jihatlari ko‘plab xorijlik olimlarning ilmiy ishlamalarida o‘z aksini topgan. Bu borada D.A. Aaker, J. Baker, D. Grewal, A. Parasuraman, K.L. Keller, F. Kotler, W. Pfoertsch, N.K. Malhotra, D.F. Birks, P. Hillenbrand, S. Alcauter, J. Cervantes, F. Barrios, P. Enrique, Becerra, V. Badrinarayanan va boshqalarning ilmiy ishlari klassik asarlarga aylangan<sup>3</sup>. Ushbu xorijiy mamlakatlar olimlari tomonidan brend va savdo markasi kabi tushunchalarning ilmiy-nazariy izlanishlarida uning mazmunini keng ochib berilgan, korxonalarda brendni samarali arxitekturasini qurish bo‘yicha metodologik yondashuvlar tadqiq etilgan va yuqori ilmiy natijalarga erishilgan biroq, ipakchilik mahsulotlari mahalliy brendlarini shakllantirish va ularni xalqaro miqyosda tanitishga qaratilgan brend strategiyalarini ishlab chiqish masalalari yetarli darajada o‘rganilmagan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘sligi mamlakatlarida bu borada G.L. Bagiyev, V.M. Tarasevich, A. Bulanov, A.O. Veselova, A.M. Godin, Ye.P. Golubkov,

<sup>3</sup> Aaker D. A., Joachimsthaler E. (2000). The brand relationship spectrum: The key to the brand architecture challenge. California Management Review, 4, 8-23; Baker J., Grewal D., Parasuraman A. (1994). The influence of store environment on quality inferences and store image. Journal of academy of marketing science, 22 (4), 328-339; Keller K.L. (2003). Strategic Brand Management: Building, Measuring, and Managing Brand Equity. PHI. 2nd ed. New Delhi; Kotler F., Pfoertsch W. (2006). B2B Brand Management. First Edition, Springer. Heidelberg / New York.; Malhotra N. K., Birks D.F. (2006). Marketing research. An applied approach. Pearson Education Limited; Philipp Hillenbrand, Sarea Alcauter, Javier Cervantes, Fernando Barrios. Better branding: brand names can influence consumer choice // Journal of Product & Brand Management. Volume 22 (4): 9 – Jul 12, 2013 – p: 300–308. — ISSN 1061-0421. — doi:10.1108/jpbm-04-2012-0120; Enrique P. Becerra, Vishag Badrinarayanan. The influence of brand trust and brand identification on brand evangelism // Journal of Product & Brand Management. — 2013-08-19. — T. 22, вып. 5/6. — C. 371–383. — ISSN 1061-0421. — doi:10.1108/jpbm-09-2013-0394

Ye.Yu. Grechin, M.O. Makashyov, P. Pravda, I.Ya. Rojkov, V.G. Kismerishkin, S.I. Antoshkin, N.A. Olmezova kabi olimlar ilmiy tadqiqotlar olib borganlar<sup>4</sup>. Mazkur tadqiqotlarda brend nazariyalari, iste'mol tovarlari brendini shakllantirish va brendni xalqaro bozorlarda samarali ilgari surishga qaratilgan tadqiqotlar amalga oshirilgan bo'lsa-da, iste'molchilarining yuksak moda xususiyatlarini o'zida ifodalagan tovarlar, jumladan ipakchilik mahsulotlari brendlarini ilgari surishga qaratilgan brend strategiyasini ishlab chiqish masalalari o'rganilmagan.

O'zbekistonning iqtisodchi olimlaridan A.S. Soliyev, N.Q. Yo'ldoshev, M.A. Ikramov, A.Sh. Bekmurodov, M.R. Boltabayev, A.A. Fattaxov, Sh.J. Ergashxodjayeva, M.S. Qosimova, A.N. Samadov, I.S. Xotamov, S.A. Eshmatov, Z.A. Xakimov, O.S. Jumayev va boshqalar marketing fanini rivojlantirishga katta hissa qo'shganlar<sup>5</sup>. Ushbu mualliflar tomonidan asosan tovarlar brendini ilgari surishning marketing strategiyalarini ishlab chiqish bo'yicha keng qamrovli tadqiqotlar olib borilgan bo'lsa-da, tarixiy rivojlangan "atlas" va "adras" kabi ipakchilik mahsulotlari brendlarining xalqaro nufuzini oshirishga qaratilgan tadqiqotlar deyarli amalga oshirilmagan. Shuningdek, ipakchilik mahsulotlari eksportida yuqori qo'shilgan qiymat yaratish hamda ipakchilik mahsulotlari raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan tadqiqotlar tizimli ravishda

<sup>4</sup> Г.А.Багиев, В.М. Тарасевич Маркетинг –Спб.: Питер, 2012; А.Булаинов Бренд 2.0 От философии к практике. –М.: Красная звезда, 2014; А.О. Веселова Развитие маркетинга в молочном продуктовом подкомплексе. –М.: 2010; автореф. дисс., А.М. Годин Брендинг.-М.: Финпресс, 2008; Е.Ю. Гречин Создание брендов. –СПб.: Питер, 2018; М.О.Макашёв Бренд-менеджмент. –Спб.: Питер, 2018; П.Правда Бренд личности. –М.: Омега Л., 2018.; И.Я.Ражаков, В.Г. Кисмерешкин Брендинг. –М.: Юрайт, 2013. С.И. Антошкин Управление брендом инновационной продукции. Специальность 08.00.05 – экономика и управление народным хозяйством (маркетинг, управление инновациями). Дис. на соис. уч. степ. к.э.н., СПб 2017.; Н.А.Ольмезова. Управление позиционированием портфеля брендов. Специальность 08.00.05 – экономика и управление народным хозяйством (маркетинг, управление инновациями). Дис.на соис. уч. степ. к.э.н., доцент – 2017. ст 109.

<sup>5</sup> А.С.Солиев. Маркетинг. Бозоршунослик. Дарслик. 2010 йил.; Н.К. Йўлдошев Стратегик менежмент. Дарслик. – Т.: ТДИУ, 2013. 140 б.; М.А.Икрамов, Ш.Дж. Эргашходжаева, З.Д.Адылова, И.У.Нематов. Управление брендом. Ўкув кўлланма. –Т.: Иқтисодиёт, 2019 йил 305 б.; А.Ш. Бекмуродов ва бошкалар. Strategik marketing. – Т.: TDIU, 2010; М.Р. Болтабоев Тўқимачилик саноатида маркетинг стратегияси. – Т.: Фан, 2004., М.А.Икрамов, М.К.Пардаев, Л.Т.Абдухалирова. Маркетинг тадқикотларида статистик таҳлил. –Т.: Sano-standart, 2019; А.А.Фаттахов, А.И. Акуфриев Маркетинговые и логистические технологии в коммерческом бизнесе. – Т.: Иқтисодиёт дунёси, 2019; Ш. Дж.Эргашходжаева Инновацион маркетинг. – Т.: Чўлпон, 2014.; Sh.Dj.Ergashxodjayeva, I.Nemativ. Brendni boshqarish. O'quv qo'llanma. – Т.: Iqtisodiyot, 2019. - 146 б.; И.С. Хотамов. Брендинг. – Т.: ТДИУ, 2016.; М.А.Ikramov, S.A.Eshmatov, J.G.Jailov. Brending. O'quv qo'llanma. -Т.: «Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi», 2021 – 280 б.; С.Эшматов. Махаллий брендни шакллантиришнинг маркетинг стратегияси (сут ва сут маҳсулотлари мисолида). 08.00.11-Маркетинг. и.ф.ф.д. (PhD) диссертацияси. ТДИУ. 2020. З.А.Хакимов. Енгил саноат корхоналари ракобатбардошлигини маркетинг стратегиялари асосида ошириш. ТДИУ, и.ф.ф.д. (PhD) диссертацияси. 2018-149 б.

o'rganilmagan. Dissertatsiya tadqiqot ishi, mahalliy brendlari hali shakllanmagan ipakchilik mahsulotlari ishlab chiqaruvchi korxonalar brendlarini ichki va tashqi bozorlarda samarali targ'ib qilishga qaratilgan brend strategiyalarini ishlab chiqishga hamda uning nufuzini oshirishga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir.

**Dissertatsiya Tadqiqotining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lif muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Mazkur tadqiqot ishi Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining OT-F2-050-raqamli «Yengil sanoat korxonalarining marketing faoliyatida motivatsiya usullaridan foydalanish samaradorligini oshirish» mavzusidagi amaliy loyihasi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi.** Ipakchilik korxonalarida brend strategiyasidan foydalanishni takomillashtirishga qaratilgan taklif va tavsiyalarni ishlab chiqish hisoblanadi.

**Tadqiqotning vazifalari:**

- korxonalarda brend strategiyalaridan foydalanishning nazariy jihatlarini o'rganish;
- korxonalarda brend strategiyalaridan foydalanishning uslubiy jihatlarini ochib berish;
- ipakchilik mahsulotlari bozorida brend strategiyalaridan foydalanish bo'yich xorijiy mamlakatlar tajribalarini o'rganish;
- O'zbekiston ipakchilik mahsulotlari bozorining rivojlanish tendensiyalarini baholash;
- ipakchilik korxonalarida brend strategiyalaridan foydalanish holatini tahlil qilish;
- ipakchilik mahsulotlariga brendni shakllantirishda iste'molchilar xulq-atvorining ta'sirini baholash;
- ipakchilik korxonalarini rivojlantirishda moda konsepsiyasiga asoslangan brend strategiyalarini ishlab chiqish;
- ipakchilik korxonalari brendini taniqlilik darajasini oshirishda raqamli marketing strategiyalaridan foydalanish yo'llarini ishlab chiqish;

– ipakchilik mahsulotlari eksportini rivojlantirishda brend strategiyalaridan foydalanish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida «O‘zbekipaksanoat» uyushmasiga a’zo korxonalarining brend faoliyati tanlangan.

**Tadqiqotning predmeti** bo‘lib, ipakchilik korxonalarida brend strategiyasidan foydalanishni takomillashtirish jarayonida yuzaga keladigan iqtisodiy munosabatlar hisoblanadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqot jarayonida induksiya, deduksiya, statistik tahlil, omilli tahlil, so‘rov, tanlanma kuzatuv, PLS tahlil, prognozlash usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:**

–uslubiy yondashuvga ko‘ra «brend» tushunchasining iqtisodiy mazmuni korxonalar tomonidan tovar siyosatining ajralmas tarkibiy qismi sifatida mijozlar bilan aloqa qilish, tovarlarni raqobatchilardan farqlash vositalari, tovar va xizmatlariga qo‘shilgan qiymat yaratishning o‘ziga xos nomoddiy aktivni nuqtayi nazaridan takomillashtirilgan;

–ipakchilik mahsulotlarining o‘ziga xos xususiyatlari sifatida tanlangan ( $X_n$  – moda, barqarorlik, tozalik, ijodiylik, innovatsionlik, nafislik, noyoblik) brend unsurlarini mijozlarning brenddan xabardorlikka ( $X_n \rightarrow Y_1 = -0,699$ ) va sodiqlikka ( $X_n \rightarrow Y_4 = -0,434$ ) «salbiy», qabul qilinadigan sifat ( $X_n \rightarrow Y_2 = 0,383$ ) hamda mijozning ishonish hissiga ( $X_n \rightarrow Y_3 = 0,373$ ) «ijobiy» ta’sirlarini hisobga olgan holda marketing strategiyasini tanlash asoslangan;

–brendlarning ijtimoiy samaraga yo‘naltirilganlik tamoyili asosida «O‘zbekipaksanoat» uyushmasining marketing bo‘limi faoliyati tarkibida «O‘zbek ipak tolasi» brendini ommalashtirishga qaratilgan media-makon faoliyatini yo‘lga qo‘yish taklif etilgan;

–ipakchilik mahsulotlarini elektron tijorat samaradorligini oshirish orqali eksport ko‘rsatkichlari rivojlanishining 2030-yilga qadar prognoz ko‘rsatkichlari ishlab chiqilgan.

## **Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilardan iborat:**

- ipak tolasini chuqur qayta ishlash asosida qo'shilgan qiymat yaratishning har bir bosqichidagi qiymat mezonlari aniqlangan;
- ipakchilik korxonalarida marketing miks elementlaridan foydalanishda brenddan xabardorlik va brendga sodiqlik, qabul qilinadigan sifat hamda mijozning ishonish hissiga ta'sirini inobatga olish taklif etilgan;
- ipak mahsulotlari uchun o'ziga xos brend identifikatorlari sifatida hashamatlilik, yuksak moda, madaniy meros, barqarorlik, tozalik, nafislik, ijodiylik, innovatsionlik, yorqinlik, noyoblik kabi xususiyatlar aniqlangan;
- iste'molchilarni brendga bo'lgan munosabatini shakllantirishda raqamli marketing strategiyalaridan foydalanish yo'riqnomalari ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Ilg'or xorij tajribalarini o'rghanish va umumlashtirish orqali ipakchilik mahsulotlari ishlab chiqaruvchi korxonalarning brendlar raqobatbardoshligini oshirish borasidagi mavjud ilmiy tadqiqot ishlarini qiyosiy va tanqidiy nazardan o'rghanish, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi, "O'zbekipaksanoat" uyushmasi ma'lumotlari va xalqaro nufuzli tashkilotlarning rasmiy manbalari asosida shakllanganligi hamda ularning tahlili, "SPSS Statistics" dasturida qayta ishlanganligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati unda ilgari surilgan nazariy-uslubiy tavsifdagi xulosa va takliflardan ipakchilik korxonalarida brend strategiyasidan foydalanishni o'ziga xos jihatlarini aniqlash, korxonalarda brend strategiyalarini ishlab chiqish va bu borada maxsus strategik dasturlarni shakllantirish hamda milliy ipakchilik mahsulotlari brendi xalqaro nufuzini oshirishga qaratilgan maqsadlarni shakllantirishda foydalanish mumkinligi bilan belgilandi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan amaliy tavsiyalar O'zbekiston ipakchilik korxonalari uchun brend strategiyalarini ishlab chiqishga va raqobatbardoshligini oshirishga yordam beradi. Tadqiqot natijalaridan «Brendni

boshqarish», «Brending», «Raqamli marketing» fanlarida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Ipakchilik korxonalarida brend strategiyasidan foydalanishni takomillashtirish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

– uslubiy yondashuvga ko'ra «brend» tushunchasining iqtisodiy mazmuni korxonalar tomonidan tovar siyosatining ajralmas tarkibiy qismi sifatida mijozlar bilan aloqa qilish, tovarlarni raqobatchilardan farqlash vositalari, tovar va xizmatlariga qo'shilgan qiymat yaratishning o'ziga xos nomoddiy aktiv nuqtayi nazaridan takomillashtirishga oid nazariy-uslubiy ma'lumotlardan oliv o'quv yurti talabalari uchun tavsiya etilgan «Marketing» nomli darslikni tayyorlashda foydalanilgan (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektorining 2023-yil 21-dekabrdagi 387-sun buyrug'i bilan tasdiqlangan 387-02-sun o'quv adabiyotining nashr ruxsatnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyatga joriy etilishi natijasida talabalarda korxonalar tomonidan tovar siyosatining ajralmas tarkibiy qismi sifatida mijozlar bilan aloqa qilish, tovarlarni raqobatchilardan farqlash vositalari, tovar va xizmatlariga qo'shilgan qiymat yaratishning o'ziga xos nomoddiy aktiv nuqtayi nazaridan takomillashtirilgan «brend» tushunchasi yuzasidan nazariy bilimlarni chuqurlashtirish imkonini yaratilgan;

– ipakchilik mahsulotlarining o'ziga xos xususiyatlari sifatida tanlangan ( $X_n$  – moda, barqarorlik, tozalik, ijodiylik, innovatsionlik, nafislik, noyoblik) brend unsurlarini mijozlarning brenddan xabardorlikka ( $X_n \rightarrow Y_1 = -0,699$ ) va sodiqlikka ( $X_n \rightarrow Y_4 = -0,434$ ) «salbiy», qabul qilinadigan sifat ( $X_n \rightarrow Y_2 = 0,383$ ) hamda mijozning ishonish hissiga ( $X_n \rightarrow Y_3 = 0,373$ ) «ijobiy» ta'sirlarini hisobga olgan holda marketing strategiyasini tanlash taklifi «O'zbekipaksanoat» uyushmasining 2023-yil 26-iyundagi 30-23 F/O-sun buyrug'iga asosan tarmoq korxonalarining marketing faoliyatiga joriy etilgan («O'zbekipaksanoat» uyushmasining 2024-yil 7-fevraldaggi 1-2/213-sun ma'lumotnomasi). Mazkur taklifni amaliyatga joriy etilishi natijasida «Fabrichtex» MCHJ, Inter Silk Pro QK, Sapfir Savdo Sanoat MCHJ, Radiant silk MCHJlarning ipakchilik mahsulotlarining brend arxitekturasi yaratilgan;

– brendlarning ijtimoiy samaraga yo‘naltirilganlik tamoyili asosida «O‘zbekipaksanoat» uyushmasining marketing bo‘limi faoliyatini tarkibida «O‘zbek ipak tolasi» brendini ommalashtirishga qaratilgan media-makon faoliyatini yo‘lga qo‘yish taklifi «O‘zbekipaksanoat» uyushmasining 2023-yil 26-iyundagi 30-23 F/O-son buyrug‘iga asosan tarmoq korxonalarining marketing faoliyatiga joriy etilgan («O‘zbekipaksanoat» uyushmasining 2024-yil 7-fevraldaggi 1-2/213-son ma’lumotnomasi). Mazkur taklifni amaliyatga joriy etilishi natijasida tarmoqning elektron savdo maydonchalarida joylashgan mahsulotlar assortimenti 2023-yilda 2022-yilga nisbatan 55 foizga va savdolar hajmini 6,9 foizga oshirish imkonini yaratilgan;

– ipakchilik mahsulotlarini elektron tijorat samaradorligini oshirish orqali eksport ko‘rsatkichlari rivojlanishining 2030-yilga qadar ishlab chiqilgan prognoz ko‘rsatkichlari «O‘zbekipaksanoat» uyushmasining 2023-yil 26- iyundagi 30-23 F/O-son buyrug‘iga asosan tarmoq korxonalarining marketing faoliyatiga joriy etilgan («O‘zbekipaksanoat» uyushmasining 2024-yil 7- fevraldaggi 1-2/213-son ma’lumotnomasi). Mazkur prognoz ko‘rsatkichlarini amaliyatga joriy etilishi natijasida uyushma tarkibidagi tarmoq korxonalarining eksportdagi ulushini 8,5 foizga oshirish imkoniyati aniqlanib, tarmoq korxonalari tomonidan ipakchilik mahsulotlari elektron tijorati hajmining istiqboldagi ko‘rsatkichlarini yanada aniqlashtirish va muvofiqlashtirish imkonini yaratilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 8 ta, jumladan 2 ta respublika va 6 ta xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlarda ma’ruza qilingan va aprobatsiyadan o‘tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e’lon qilinishi.** Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 13 ta ilmiy ish, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan ilmiy nashrlarida 5 ta maqola, shundan 2 ta respublika, 2 ta xorijiy, 1 ta sohaga oid ilmiy jurnallarda va 8 ta ma’ruza tezislari chop etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, 3 ta bob, 9 ta paragraf, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan tashkil topgan bo‘lib, uning hajmi 130 betdan iborat.